

O'ZBEKISTONNING BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH YO'LI

Omonov Zarshed Alisher o'g'li

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Xalqaro Iqtisodiy Munosabatlar 51-U Guruh Talabasi

Annotatsiya:

O'zbekistonning mustaqillik erishgandan so'ng bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li va birinchi prezidentimiz Islom Karimovning beshta tamoyillari mohiyati va mazmuni va unga ishlab chiqilgan bir qator vazifalari

Kalit so'zlar: Bozor iqtisodiyoti, Revolyusion xamda Evolyusion yo'llar, "O'zbek modeli", tadbirkorlikni rivojlanТИRISH.

O'zbekiston 1991-yil 31-avgustda mustaqillikga erishgandan so'ng xar bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlagani singari O'zbekiston xam yangi jamiyat barpo etishda o'z andosasini ishlab chiqishga intildi. Bunda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar dunyo qarashi, dini, etiqodi va dunyo qarashlarini o'z ichiga oladi. Jalon tarjibasida bozor iqtisodiyotiga o'tishning to'rtta ta yo'li mavjud. Bular birinchisi rivojlangan mamlakat yo'li – Bunda oddiy tovar xo'jaligidan erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o'tiladi. Ikkinchisi rivojlanayotgan mamlakat yo'li – bunda mustaqil rivojlanayotgan mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li bo'lib unda qoloq an'anaviy iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tiladi. Uchinchi o'tish yo'li sobiq sotsialistik mamlakatlar yo'li – bu yo'lning o'zgachaligi, butunlay qarama qarshi bo'lgan bir iqtisodiyotdan xozirgi zamon rivojlangan bozor tizimiga o'tiladi, va oxirgi to'rtinchi o'tish yo'li sosializm g'oyalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish mexanizmi bilan olib boorish lozim.

Yana iqtisodiyotda bir iqtisodiy tizimdan boshqa iqtisodiy tizimga o'tish yo'llari mavjud. Bular Revolyusion xamda Evolyusion yo'l . Revolyusion yo'lda katta to'ntarishlar qilish orqali davlatni rivojlanТИRISH usuli, bu yo'l har doim ham o'z samarasini bermaydi. Evolyusion yo'lda esa asta sekinlik bilan bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'li xosoblanadi .

Bu yo'llardan O'zbekiston O'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarni hamda jalon tajribasini hosobga olgan holda asta-sekinlik bilan

bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga kirdi. Bu yo'lni amalga oshirishda birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan beshta tamoil asos qilib olindi. Bu yo'l haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli kitibida shunday fikr bildirgan: "O'zbekistonda qabul qilingan, "o'zbek modeli" ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotini mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyisat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li".

Birinchi tamoyil – iqtisodiyot siyosatdan ustuvor bo'lishi va iqtisodiyot o'ziga xos bo'lgan ichki qonunlar asosida rivojlanmoqi zarur. Iqtisodiyotga na siyosat, na mafkura o'z tazyiqini o'tkazmasligi kerak. Ikkinci tamoyil – davlat bosh islohotchi bo'lishi kerak. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tish tartibsiz holda emas balki davlat rahbarligida amalga oshiriladigan islohotlar orqali yuz beradi. Uchinchi tamoyil – qonunlar va ularga amal qilinishining istuvorligini ta'minlash. Bu tamoyil bozor iqtisodiyotiga o'tishni tartibli ravishda, xammaning keng jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqqan davlat qonunlariga so'zsiz rioya etilishi orqali borishni bildiradi. To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyaosat yuritish. Bu iqtisodiyotga kuchli ta'sir eta oladigan, xalqning ijtimoiy ximoyasini, uning faolligini ta'minlaydigan iltimoiy adolatini yuzaga chiqaradigan siyosatni olib borishni anglatadi. Beshinchi tamoyil – bozor iqtisodiyotiga asta-sekin bosqichma bosqich o'tish. Bu tamoyil chuqur iqtisodiy islohotlarni shoshilmasdan amalga oshirishni talab qiladi. Bu yetakchi tamoyil bo'lib, rivojlanib borish va xarakterni belgilab boradi. Bu tamoyilarni amalga oshirishda iqtisodiyotning islox qilishni asosiy bosqichlarini farqlash, aniq maqsadlariga erishish vositalarini belgilab olish zarurdir. Ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning bu tamiyillariga izchil amal qilinishi mustaqillik yillarda iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishini ta'minlab berdi. Bu tarraqiyot yo'limiz jahon hamjamiyati orasida rivojlanishning "o'zbek modeli" deya e'tirof etildi.

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov asarlarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar keltirilgan. Birinchi vazifa – davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirkrlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish xisobiga ishlab chiqarish hajmini oshirish ko'zda tutilgan. Ikkinci



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st January, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

vazifa – ishlab chiqarishni ulushini pasayishiga barxam berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash . Bunda korxona va tarmoqlarni davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi. Uchinchi vazifa – milliy valyutaso'mni yanada mustahkamlash, pulning qadrsizlanishiga qarshi choralar ni qo'llash, is'temol mollarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalar ning chetga mol chiqarishini kengaytirish xisobiga valyuta zaxiralarini mustahkamlash. To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xom ashyo yetkazib berishda tayyor maxsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Bu vazifalarni amalga oshirishga vaqt xamda qa'tiyat kerak bo'ladi. Bu islohotlarni amalga oshirish to'liq bajarildi degan xulosaga kelish noto'g'ri xisoblanadi. Bozor iqtosodiyotining eng muhim sifatlaridan biri xususiy mulkchilikning ustuvorligini ta'minlab, yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka katta e'tibor berilmogda, bu esa o'z navbatida aholini ish bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik qobiliyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bundan keyin ham yurtimizda bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishimiz, dunyoning rivojlangan mamlakatlari qatorida biz ham o'z mahsulotimizni jahon bozoriga chiqarishimiz kerak. Chet el investitsiyalarini o'zimizga ko'proq jalb qilishimiz va ularning tadbirkorligiga shart va sharoit yaratib berishimiz lozim. Iqtosodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad aholi uchun yashash va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Barcha islohotlarni asl maqsadi shulardan iborat. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishda tanlagan yo'li – o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqqtisodiy va tabiiy xususiyatlarni hamda bu yo'lagini jahon tajribasini hisobga olgan holda revollyusion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik va qat'iyyatlik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iboratdir.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyev F.T Abdullayev S.A Mambetjanov K.K Iqsodiyot nazariyasi
2. Karimov I.A O'zbekiston buyuk keljak sari T.: O'zbekiston, 1998.